



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Davronov Pirnazar Ziyatovich

Samarqamdi viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi professori
prof.davronov@gmail.com
+998933473500

PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TRANFORMATSIYALASH ASOSIDA UNING NATIJADORLINI OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada pedagoglarning malakasini, malaka oshirish markazlarida emas, balki ular faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning o'zida amalga oshirish g'oyasi olg'a surilgan va metodikasi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: davlat, siyosat, formon, qaror, pedagog, o'qituvchi, o'quvchi, malaka, radikal, transformatsiya, natijadorlik, mobil guruh, trening.

Abstract: in the article, the idea of implementing the training of pedagogues not in training centers, but in the schools where they operate, is presented and the methodology is described.

Key words: state, policy, form, decision, pedagogue, teacher, student, qualification, radical, transformation, effectiveness, mobile group, training.

Аннотация: в статье выдвигается идея проведения повышения квалификации педагогов не в центре повышения квалификации, а в самих школах, где работают сами преподаватели и излагается методика.



Ключевые слова: государство, политика, форма, решение, педагог, учитель, ученик, квалификация, радикал, трансформация, эффективность, мобильная группа, обучение.

Mamlakatimizning barcha jahbalarida, ayniqsa ta’lim sohasida tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta’limini zamon talablariga mos rivojlantirish masalasini, u joyda faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning kompetentligini ta’minlamasdan amalga oshirish mumkin emas. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvarda PQ-4963-son Qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 17-yanvarda №25-son Qarori qabul qilindi.

Malaka oshirishda o‘qitish bu - tinglovchilarining qalblarini zabit etgan holda, ularda el manfaati, vatan tuyg‘usini uyg‘otish hamda ta’lim-tarbiyaning umumbashariy metodikalari bilan qurollantirish jarayonidan iborat.

Tinglovchilardan “Sizlar bu o‘quv maskaniga nima uchun keldilaringiz?”-degan savolimizga, “Malaka oshirishga” javobini olamiz. Biroq, hech bir tinglovchi aynan nimani oshirish uchun kelishganliklarini mukammal bilishmaydi. Mukammal javob esa malaka tushunchasi ta’rifida o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlangan bilim, qobiliyat, maxorat va ko‘nikmalar darajasiga malaka deyiladi. Demak, tinglovchi o‘zida ma’lum darajada mavjud bo‘lgan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalari darajasini yanada oshirish uhun kelishlari keak.

Malaka oshirishga kelgan yuz foiz o‘qituvchilar o‘zlarining bilimi, qobiliyati, mahorati va ko‘nikma darajalarini oshirib ketganligi to‘g‘risidagi hujjatni olish bilan to‘xtamasliklari, balki ularni maktab amaliyotiga qo’llashlari, o‘zlashtirilgan yngi metodikalarni ta’lm-tarbiya jarayoniga tatbiq etishlari asosiy maqsad bo‘lib qolmog‘i darkor. Barcha o‘qituvchilarni bunday ishslashga yunaltirish uchun davlat siyosati



darajasidagi Farmon, Qaror va uning ijrosi bo‘yicha qat’iy nazoratni o‘rnatish hamda talab etilayotga yunalishda doimiy amaliy metodik yordam uysushtirilishi kerak bo‘ladi.

Shunday ekan, har qanday kasb egalarining, jumladan o‘qituvchilarning jamiyat taraqqiyoti talablari darajasida faoliyat ko‘rsata oloshlari uchun malakalarini oshirishlari va o‘zlashtirilgan yangi zamonaviy metodikalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishlari doimiy hayotiy ehtiyoj hisoblanadi.

Malaka darajalarini oshirishga kelgan mакtablar o‘qituvchilari bilan hamkorlikda ishlash tajribamiz, bizni “Pedagoglar malakasini bevosita ularning ish joylarida amalga oshirilishi kerak” - degan fikrga olib kelmoqda. Ushbu fikrimizning hayotiy ekanligini aniqlash maqsadida 2021-2022-o‘quv yilida Samarqand viloyati Pastdarg‘om tuman xaiq ta’limi bo‘limiga qarashli 128-umumiy o‘rtta ta’lim mакtabida, Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasining bir guruh professor-o‘qituvchilari, mакtab pedagoglari jamoasi bilan hamkorlikda tajriba o‘tkazdik.

Mакtab ma’muriyati biz taklif etayotgan ta’limning yangi samarali metodikalarini darslarga tatbiq etishga yaqindan yordam ko‘rsatishdi, targ‘ibot olib borishdi, tashabbus ko‘rsatgan o‘qituvchilri q’llab-quvvatlashdi, rag‘batlantirishdi. Biroq, 27 nafar fan o‘qituvchilari jamoasidan atigi 3 (Rasulova Nigora-on) tili va adabiyoti, Axtamova Iroda-matematika, Amirova Gulnoza boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi) nafarining yangi zamonaviy metodikalar bilan ishslashlariga erishdik. Qolgan 24 nafar fan o‘qituvchilari faoliyatlarini o‘zlari o‘rganib qolgan eski qolipda davom ettirishdi.

2023-yilda tajriba ishlarimizni davom ettirish uchun Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasini bilan Samarqand shahar mакtabgacha va mакtab ta’limi bo‘limiga qarashli 19-umumiy o‘rtta ta’lim mакtabi orasida hamkorlikda ishslash bo‘yicha memorandum tuzuldi.



2023-yil 5-yanvarda, 19-umumi o'rta ta'lim maktabi ma'muriyati ishtirokida barcha o'quv fanlari o'qituvchilari jamoasi bilan zamonaviy yangi bitta metodikani o'rgatishga qaratilgan seminar-trening o'tkazdik. Ma'muriyat tomonidan 8-”A” eksperimental sinf sifatida belgilandi.

8-sinflarda quyidagi fanlar o'qitiladi: 1) Ona tili 3 soat; 2) Adabiyot 2 soat; 3) Rus tili 2 soat; 4) Chet tili 3 soat; 5) Tarix 3 soat; 6) Huquq 1 soat; 7) Tarbiya 1 soat; 8) Algebra 3 soat; 9) Geometriya 2 soat; 10) Informatika 1 soat; 11) Fizika 2 soat; 12) Kimyo 2 soat; 13) Biologiya 2 soat; 14) Geografiya 1,5 soat; 15) Iqtisod 0,5 soat; 16) Chizmachilik 1 soat; 17) Texnologiya 1 soat; 18) Jismoniy tarbiya 2 soat.

17-martda eksperimental sinfning atigi 1 nafar (ona tili va adabiyoti o'qituvchishi Qayumova Maftuna) fan o'qituvchisining taklif etilgan zamonaviy metodika bilan ishlashiga erishildi. 7 va 14-aprel kunlari bu o'qituvchining darslariga maktab ma'muriyati taklif etgan mutaxassislar bilan birgalikda tahlil uchun kirdik. Taklif etilgan zamonaviy metodikaning natijadorligi tahlilga kirgan barcha, shuningdek darsni olib brogan o'qituvchi, hatto o'quvchilar tomonidan e'trof etildi.

28-aprelda maktab direktori tomonidan eksperimental sinfning qolgan o'qituvchilariga ham amaliyatga tatbiq etilgan zamonaviy metodika asosida ishlash topshirig'i berildi. Darslarini yangi zamonaviy metodika asosida olib borayotgan filolog o'qituvchi, eksperimental sinfning boshqa fanlar o'qituvchilari darslariga kirib, ularni o'zining darslariga taklif etib ishladi. Biroq, 3-mayda biologiya fani o'qituvchisi (Baxriddiniva Matluba), 10-mayda matematika fani o'qituvchisi (Sattarov Muzaffar) uning safiga qo'shildi xolos. 2023-yil 19-mayda ularning darslari tahlil qilindi. Eksperimental sinfning qolgan 15 nafar o'qituvchilarini yangi zamonaviy metodikalar asosida ishlatib bo'lmadi.

Shu o'rinda yana bir misol, Samarqand qishloq xo'jalik intitutidagi 23 yillik mehnat faoliyatimiz davomida juda ko'plab zamonaviy mahorat darslari ko'rsatdik. Jumladan, institutning rektorlari topshiriqlariga asosan jamoaning barcha professor-o'qituvchilariga, inisstitutga biriktirilgan 21 ta litsey va kollejlar o'qituvchilariga mahorat darslar o'tdik. Bunday zamonaviy darslar maktab, litsey va kollejlarning o'zlariga borib ham o'tkazildi. Shunday darslardan biri, Samarqand davlat chet tillar



instituti rektorining Samarqand qishloq xo‘jalik instituti rektori nomiga 2017-yil 12-dekabrda yozilgan №1262/30-02-01-son iltimos xati asosida 2018-yil 18-yanvarda ularning faollar zalida o‘tkazildi. Bu darsga Samarqand davlat chet tillar institutining bir guruhi, Samarqand qishloq xo‘jalik institutining buxgalteriya guruhi talabalari, Samarqanddagi barcha oily o‘quv yurtlar hamda malaka oshirish markazlarining o‘quv bo‘limlari rahbarlari ishtirok etishdi. Barcha ishtirokchilar o‘tilgan darsni maqullashdi, namoyish etilgan yangi metodikalarni ta’lim jarayoniga qo‘llash zarurligini e’tirof etishdi, biroq, taklif etilgan metodikalar hech bir ta’lim muassasasida amaliyotga tatbiq etilmadi.

Zamonaviy o‘qitish metodikalarini amaliyotga tatbiq etishning nega bunchalik qiyin kechayotganligining sababini, malaka oshirishga kelgan tinglovchilar, eski qobiqdan chiqaoimaslik,-deb ko‘rsatishmoqda.

Shu o‘rinda fidoyi o‘qituvchilar fikrini keltiramiz: ustoz bizlarga aytayotgan gaplarni maktablarimizga borib aytingizlar, hamma bir vaqtida eshitsin va hammaning bir vaqtida yangi zamonaviy metodikalar asosida ishlashlarini maktab ma’muriyati nazorat ostiga olishsin. Iltmos, mashina tashkil qilib sizlarni olib ketib, keltirib qo‘yamiz. Malaka oshirish muddatini o‘tashimiz jarayonida, ko‘nglimizda ta’lim-tarbiyaga doir “Shu metodikani o‘z faoliyatimda qo‘llab ko‘raman”,-degan yangidan-yangi g‘oyalar paydo bo‘lmoqda. Biroq, bu g‘oyalarini maktablarda uzoq yillar davomida shaklangan kuchli bir oqim, bir oyga yetkazmasdan yuvib ketmoqda.

Zamonaviy darslarni amaliyotga tatbiq etish yunalishidagi 1977-yilda boshlagan mehnatlarimizning natijasi past darajada bo‘lib qolaverdi.

Yuqorida keltirilgan misollar, xalq ta’limi xodimlarini uzlucksiz kasbiy rivojlantirish bilan bir vaqtida, ular tomonidan o‘zlastirilgan zamonaviy ta’lim metodikalarining amaliyotga tatbiqini ta’minlochi davlat siyosati ham zarur ekanligini ko‘rsatib turibdi. Yangi zamonaviy metodikalarning maktab amaliyotiga tatbiq yo‘q ekan, sifatli ta’lim ham bo‘lmaydi.

Pedagoglar malakasini oshrish tizimini radikal transformatsiyalash asosida maktab ta’limining natijadorligini ta’minlash to‘g‘risidagi g‘oyalarimiz mazmunining



barchaga tushunarli bo‘lishi uchun Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi misolida bayon qilamiz:

Samarqand viloyatida 2 ta shahar va 14 ta tumanlar mavjud bo‘lib, ularda 2022-2023-o‘quv yilida 1262 ta maktablar faoliyat ko‘rsatdi;..

T/r	Hudud nomi	Maktablar soni
1.	Samarqand Shahar	88
2.	Kattaqo‘rg‘on Shahar	18
3.	Bulung‘ur tuman	69
4.	Jomboy tuman	56
5.	Ishtixon tuman	97
6.	Kattaq’o‘rg‘on tuman	105
7.	Qo‘shrabet tuman	88
8.	Narpyay tuman	70
9.	Nurobod tuman	75
10.	Oqdaryo tuman	57
11.	Pastdarg‘om tuman	128
12	Payariq tuman	102
13.	Paxtachi tuman	47
14.	Samarqand tuman	53
15.	Toyloq tuman	61
16.	Urgut tuman	148
	Jami	1262

Samarqand viloyati hokimligi maktablar o‘qituvchilarining toifa darajalarini oshirish maqsadida 2022-yilda mobel guruhat tashkil qildi.

Mobil - fransuzcha mobilis so‘zidan olingan bo‘lib, harakatchan, qo‘zg‘aluvchan, ko‘chma ma’noda, muhim topshiiqni bajarish uchun aholini, sanoatni safarbar qilish ma’osini bildiradi.



Viloyatdagi maktablarning malakali ona tili, matematika, informatika, fizika, biologiya, tarix fanlari o‘qituvchilari chaqirilib bir hafta davomida o‘qilib, trenirlar tayyorlandi. Ular tuman (shahar) ta’lim bo‘limlarida tasdiqlangan dasturlar asosida, mutaxassis va ikkinchi toifa o‘qituvchilarini, aprel oyidan boshlab 6 oy, bir hafta davomida 1 kun oflayin, 5 kun onlayin tarzda o‘qitishdi. Toifa attestatsiyadan o‘tmagan o‘qituvchilarning, qayta o‘qishlari tashkil etildi.

Mobil guruhlarda o‘qitish Samarqand viloyati hokimligining qattiq nazorati ostida amalga oshirildi. Jumladan: 1) o‘quv xonalarga nazorat kameralari o‘rnatildi; 2) joylarda darslarning borishi ustidan Samarqand davlat universiteti professor-o‘qituvchilarining nazorati yo‘lga qo‘yildi; 3) Samarqand davlat universiteti professor-o‘qituvchilari faoliyati ustidan, Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi professor-o‘qituvchilarining nazorati va yozma axborot berishlari tashkil etildi. Trener o‘qituvchilar oyiga 2 million so‘m atrofida maosh olishdi.

Viloyat mакtablarida toifa darajalarini oshirgan o‘qituvchilar umumiyligi foizining oshganligi e’tiborga olingan holda, 2023-yil fevral oyidan may oyigacha ona tili, matematika, informatika, tarix fanlaridan darslar tashkil etildi.

Samarqand viloyati hokimligining maktablar o‘qituvchilarining toifa darajalarini oshirishga qaratilgan ushbu tadbiri o‘zining ijobjiy natijasini berdi.

Biz taklif etadigan Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida tashkil etiladigan mobil guruhning maqsadi zamonaviy natijador ta’lim metodikalarini maktablar amaliyotiga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Mobel guruh tarkibiga kiruvchi har bir professor-o‘qituvchining, bir o‘quv yili davomida, har oyda navbat bilan 10 ta umumiyligi o‘rtalim maktablarida faoliyat ko‘rsatishi mumkinligi o‘tkazgan tajribalarimizda o‘z isbotini topgan. Demak, viloyatning 1262 maktablari uchun mobel guruh tarkibida 127 nafar professor-o‘qituvchilarning bo‘lishi yetarli.

Mobil guruh tarkibi malakali pedagog, psixolog va 15 ta fanlar (Ona tili va adabiyoti, rys tili va adabiyoti, xorijiy til, matematika, informatika, fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, geografiya, tarix va tarbiya, iqtisodiy bilim asoslari,



texnologiya, rasm chizmachilik, jismoniy tarbiya, yoshlarni chaqiriqqa tayyorlash) bo‘yicha professor-o‘qituvchilar bo‘lishi talab etiladi.

O‘tkazilayotgan tajribalarimizning ko‘rsatishcha, agar ta’lim muassasasining direktori va o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari katta mas’uliyat bilan qo‘llab quvvatlasa, o‘qituvchilar jamoasiga 1 ta yangi zamonaviy metodikani o‘rgatish va uni amaliyatga tatbiq etish uchun, mobel guruh 1 nafar a’zosining, 1 oy davomida ko‘pi bilan 3 yoki 4 marta borishi yetarli bo‘ladi: 1-borilganda tanishuv va yangi metodika o‘rgatiladi va uni darslarga tatbiq etish taklifi beriladi; 2-borilganda eksperimental sinfning 3 ta fan o‘qituvchilari darslariga kirilib, qo‘yilgan metodikaning darslarga tatbiq etilishi, o‘qituvchi-o‘quvchilarining unga moslashuvchanlik hamda mavzuning o‘zlashtirilganlik darajasi tahlil qilinadi, eksperimental sinf fan o‘qituvchilari jamoasi bilan suhbatlashiladi va tegishli tavsiyalar beriladi. Agar qo‘yilgan zamonaviy metodikaning maktab faoliyatiga tatbiqidagi oqsoshlar kuzatilsa, mobil guruh a’zosining 3-4 marta borishiga to‘g‘ri keladi. Eksperimental sinfda yo‘lga qo‘yilgan zamonaviy metodikalarda ishslash tajribasini maktab doirasida ommolashtirish ma’muriyat zimmasiga yuklatiladi.

Yangi zamonaviy metodikalarni ommolashtirishda o‘quvchillarning yosh xususiyatlari, hatto o‘quv fanlari ham e’tiborga olinishi zarur. Masalan, 4-boshlang‘ich va 5-sinf o‘quvchilariga tatbiq etish mumkin bo‘lgan o‘qitish metodikasini, 1-2-sinflar o‘quvchilarini o‘qitishga qo‘llab bo‘lmashligi tajribada isbotlangan.

Agar eksperiental sinfda yangi metodika asosida ishlayotgan o‘qituvchilar o‘zlarining boshqa sinflaridagi darslarini ham ushbu metodikada olib borishsa, ular sistemali rag‘batlanТИRIB borilsa, yangi metodikaning maktab doirasida ommalashishi kuchayadi.

Faoliyatini natijador yakunlagan mobil guruh a’zosi, milliy markaz koordinatori ko‘rsatmasi asosida boshqa navbatdagi maktabga o‘tkaziladi.

Mobil guruh a’zosi 1 ta maktabga 1 oy davomida 4 marta borsa, kuniga 6 soatdan jami 24 soat vaqt sarflaydi. Bir o‘quv yili mobaynida, mobil guruhning 1 nafar a’zosi 10 ta maktabga boradi va bunga jami 240 soat vaqt sarflaydi.



Mobil guruh a'zosining keying yilda boradigan 10 ta maktablari koordinator tomonidan almashtirib turiladi. Shunda maktablarga boriladigan masofalar nuqtai nazaridan ham adolatli bo'ladi. Bundan tashqari, maktablarning mobil guruh a'zolariga nisbatan bo'lgan talab ehtiyojlariga qarab, kimning qanday ishlayotganligi ham ko'rinish qoladi.

Samarqand shahriga nisbatan Nurobod, Qo'shrabot, Paxtachi kabi uzoq tumanlarga boruvchi mobel guruh a'zolarining yo'l va joylarda tunab qolish harajatlarini byudjetdan qoplash masalasi ham e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mobil guruhda faoliyat ko'rsatadigan professor-o'qituvchilar maktablarga borishmagan vaqtlarida ta'lim-tarbiyaning yangi zamonaviy natijador metodikalarini yaratish hamda ularni izlab toppish bilan shug'ullanishadi, ya'ni o'zluksiz kasbiy rivojlanish amalga oshadi.

Mobil guruh a'zosi tomonidan yangi metodikaning mazmun-mahiyati maktabdagi barcha fanlar o'qituvchilariga seminar-trening ko'rinishida bayon qilinadi.

Ta'lim oluvchilar jamoasining hamkorlikdagi jonli harakatlari muhitida, o'rganilishi rejalashtirilgan bilimlar majmuining o'zlashtirilishini ta'minlashga yunaltirilgan jarayonga trening deyiladi.

Maktab ma'muriyati mobel guruh vakiliga bitta eksperimental sinfni ajratadi va shu sinf fan o'qituvchilarining bir vaqtda barchasining yangi metodika asosida ishlallarini ta'minlab beradi.

Eksperimental bitta sinf doirasida o'rganilgan yangi metodika, maktab ma'muriyati tomonidan barcha mumkin bo'lgan sinflarga ommolashtiriladi,

Ma'lum muddatda yangi metodika butun jamoa tegishli sinflar o'qituvchilarini tomonidan o'zlashtirilib, amaliyotga tatbiq etilishi oddiy faoliyat turiga aylangach, maktab ma'muriyati zaruratga qarab malaka oshirish milliy markazi koordinatoriga navbatdagi metodikani o'rganish uchun mutaxassis yuborishini so'raydi.

Bunday zarurat tug'lishiga doir misol keltiramiz. Kattaqo'rg'on tumanidagi 54-umumiyl o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchisi bir hafta davomida Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida



tashkil etilgan, muammoli ta’limga doir Singapur tajribasini o‘rganib qaytdi. Bu o‘qituvchi Samarqand viloyati hokimligi tomonidan tashkil etilgan mobel guruh a’zosi. Oylik maosh 10 milliondan ortiq. Uning e’tirofiga ko‘ra, Singapur o‘quv kursida o‘rganilgan metodikalar asosida 1,5 oy ishslash yaxshi natija bergen, keyin yangi metodikaga ehtiyoj tug‘ilgan. Yangi metodika bo‘limganligi tufayli, yana o‘zining oldingi o‘qitish uslubiga qaytgan.

Biz taklif etayotganimizdek pedagoglar malakasini oshirish, ular ishlayotgan maktablarda olib borilsa, hozirdagidek har haftada Toshkent shahri va viloyatlardagi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlariga minglab tinglovchilar kelishmaydigan bo‘lishadi. Ularga sarflanadigan katta miqdordagi davlat buyudjeti mablag‘lari tejaladi.

Maktablarning barcha sinflarida butun o‘quv yili davomida o‘qituvchilarning uzlusiz faoliyat ko‘rsatishlariga erishishiladi, har haftada dars jadvaliga o‘zgartirish kiritishdek tashvishga barham beriladi.

O‘qituvchilarning malakaga, attestatsiyaga va yana ko‘plab boshqa tadbirdarga jalg‘ etilishi, ta’limda uzulishlar bo‘lishiga olib kelmoqda, bu esa albatta ular o‘qitayotgan sinflar o‘quvchilarining o‘qish sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Jumladan, 2023-yilda Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida 52 000 nafar pedagoglarning malaka oshirishlari rejalshtirilgan. Ushbu malaka oshirishni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 8 milliard 959 million 265 ming so‘m mablag‘ ajratilgan. Buning 6 milliard 419 million 919 ming so‘mi, 76 nafar ma’muriyat bilan texnik xodimlar va 62 nafar professor-o‘qituvchilar maoshi uchun, qolganlari kommunal to‘lovlari, soliqlari, moddiy texnik bazani rivojlantirish uchun belgilangan.

Professorga 8 734 000, dotsentga 7 711 000, katta o‘qituvchiga 6 184 000, o‘qituvchiga 5 500 000 maosh berilishi e’tiborga olinsa, bir professor-o‘qituvchiga o‘rtacha 6 000 000 so‘mdan to‘g‘ri keladi.

Malaka oshirishga kelgan o‘qituvchining darslari boshqa o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladi, bu holat darsning odatdagagi sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.



O‘qituvchining o‘rtacha oylik maoshini 2 million so‘m hisoblasak, bir haftalik maoshi o‘rtacha 500 000 so‘m bo‘ladi.

2023-yilda Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markaziga malaka oshirish uchun kelgan 52 000 tinglovchining maktbdagi darslarini o‘tgan boshqa o‘qituvchilarga davlat byudjetidan 52 000 x 500 000 = 26 000 000 000 (yegirma olti milliard) so‘m mablag‘ sarflandi.

Bu mablag‘ mamlakatimizda 500 000 o‘qituvchi borligi inobatga olingan holda hisoblansa $500\ 000 \times 500\ 000 = 250\ 000\ 000\ 000$ (250 milliard) so‘m bo‘ladi.

Ko‘p sondagi o‘quv xonalar, yotoq joy, yemakxonalar ham kerak bo‘lmaydi. Moddiy texnik bazani revoljantirish va obodonlashtirishga yunaltirilgan harajatlar tejaladi.

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida kommunal to‘lovlardan 179 420 000 so‘m iqtisod qilinadi. Yillik ta’mirlash ishlaridan 4 230 000 so‘m, ust bosh, oyoq kiyim va yotoq joy ko‘rpa tushaklaridan 23 082 000 so‘m, telefon, telikommunikatsiya va information xizmatlardan 21 960 000 so‘m, jami 228 692 000 so‘m tejaladi.

Bo‘s sh turgan bino xonalarini ijara berishdan, 1 xonaga oyiga 1000 000 so‘mdan daromad hisoblansa, mavjud 50 ta xona hisobida 50 mln. daromadni 10 oyga hisoblansa, 500 mln. bo‘ladi. Bu mablag‘ning 40 % markazga, 60% davlatga o‘tkaziladi.

Bunday sharoitda maktablarga borib ishlaydigan mobel guruqlar tarkibiga kiruvchi pedagoglarga bir oylik maosh uchun $127 \times 6\ 000\ 000 = 762\ 000\ 000$ (762 000 000 million) so‘m mablag‘ sarflanadi.

Agar mobel guruuh a’zolarining ko‘proq viloyat maktablarida safarlarda bo‘lishlarini e’tiborga olgan holda, maoshlarini 1,5 shtat birligida hisoblansa, $127 \times 9\ 000\ 000 = 1\ 143\ 000\ 000$ (1 milliard 143 million) so‘m bo‘ladi. Bu mablag‘ hozirda rejadagi sarflanalanayotgan jami maosh miqdoridan 5 276 919 000 (5 milliard 276 million 919 ming) so‘m kam. Birgina maoshning o‘zidan shuncha iqtisod qilinadi.

Demak, maktab o‘qituvchilari malakasini oshirishning biz taklif etayotgan usulidan foydalanilsa, o‘qituvchilar o‘z ustida ishlaydigan, o‘zlashtirilgan bilimlarni



amaliyotga qo‘llaydigan bo‘lishadi, ta’limda natijadorlik kuchayadi, davlat byudjeti mablaglarining bir viloyat doirasidagi sarfi 32 milliard 005 million 611 ming so‘mga tejaladi:

- 1) malakaga kelib o‘qigan o‘qituvchilar o‘rniga dars o‘tgan o‘qituvchilarga to‘lanadigan 26 milliard so‘m;
- 2) turli harajatlardan 228 692 000 so‘m;
- 3) xonalarni ijaraga berishdan 500 000 000 so‘m;
- 4) maoshdan 5 276 919 000 so‘m.

Jami 32 005 611 000 so‘m mablag‘ tejaladi.

Mobil guruh tarkibiga Samarqand viloyati hokimligining ta’lim bo‘yicha mas’ul vakili (bir kishi), shuningdek Samarqand viloyati maktabgacha va mактаб та’лими boshqarmasidan tuman (shahar)lar ta’lim bo‘limlariga berkitilgan 16 ta kurator-metodistlar, Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazidan bitta koordinator qatnashishi talab etiladi. Demak, mobil guruhlardagi komandaning jami tarkibi $127+18=145$ nafar mutaxassislardan iborat bo‘ladi. Bu hisobning ustiga Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi ma’muriyati va texnik xodimlari soni qo‘shiladi.

Viloyatlar va Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarida, mobil guruhlarning 145 nafar a’zolari tarkibidan tanlab olingan 7-9 kishilik eksperimental hay’at shakllantiriladi. Bu hay’at, pedagog olimlar, tajribali o‘qituvchilar tomonidan, maktablar hayotiga tatbiq etish taklif etiladigan zamonaviy ta’lim metodlarini tanqidiy, mantiqiy tahlil qilib, eng maqbollarini ajratib olishadi. Tanlab olinga metodilar hay’at yig‘ilishining qarori va direktor buyrug‘i bilan amaliyotiga mobil guruh a’zolari va maktablar o‘qituvchilari hamkorligida tatbiq etiladi.

Bir vaqtning o‘zida, ta’lim-tarbiya sohasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar ishlarining maktablar hayotiga tatbiqi ro‘y beradi. Yangidan qilinayotgan ilmiy tadqiqot ishlarni va olingan natjalarni ta’lim-tarbiya jarayonida sinab ko‘rish imkoniyatlari kengayadi.



Yangi metodikalarni yaratgan pedagog olimlar va novator o‘qituvchilarni ragbatlantirish maqsadida, ularga to‘lanadigan mablag‘lar miqdori belgilab qo‘yilishi kerak. Chunki bir olim yoki o‘qituvchi butun hayotiy faoliyati davomida ko‘p sondagi arzirli zamonaviy metodikalarni yarata olmaydi.

Mobel guruh a’zolarining yil mobaynida qaysi tuman (shahar) maktabiga borish grafigi viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari hamda pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining hamkorlikdagi kelishuvi asosida shakllantiriladi.

Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan taklif etilayotgan amaldagi haftalik malaka oshirish dasturlarida belgilangan modullarni o‘rganish to‘lig‘cha onlayin shaklga o‘tkazilaversin. Shu o‘rinda ham kuzatishlarimiz natijasini bayon qilishni o‘rinli deb hisoblaymiz. Oldingi yillarda o‘rganilgan builimlarni tinglovchilardan darslarimizda so‘raymiz, afsuski hech kim javob bermaydi. Masalan, bugungi kunda ta’lim sohasida iste’molga kirib bo‘lgan, 2020-yildan buyon har yili darslarda o‘rgatiladigan “Kompetentlik” so‘zining ma’nosini hech bir tinglovchi bilmaydi. Jumladan, 2023-yilda o‘rganilayotgan “O‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan muloqot maneralari” mavzusida “muloqot kompetentligi” iborasi bor. “Kompetentlik nima degani?” savolimizga to‘g‘ri javob bergen tinglovchini uchratmadik. Mazkur jarayon, tinglovchilarining bir haftalik o‘qishlaridan so‘ng, o‘zlarining ustida uzluksiz ishlamayotganliklarini isbotlab turibdi.

Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan taklif etilayotgan modullar mazmunining maktab amaliyotiga tatbiqi yuzasidan nazorat olib borishni ham mobel guruh a’zosi zimmasiga yuklash, buning uchun unga qo‘srimcha soat berish kerak.

Bugungi kunda nutqimizda tez-tez uchrab turadigan internatsional so‘zlarining aksariyat hollarda izohsiz holatda uchrashi kitobxon uchun ko‘p hollarda matn mazmunini tushunishda qiyinchiliklar tug‘dirish bilan bir qatorda ushbu termin, atama yoki internatsional so‘zni izohli lug‘atdan qidirishi jarayonida vaqt yuqotishi,



qolaversa matn mazmunini fikri chalg‘ib unutishi kabi qator noqulay vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Shunday holatga misol tariqasida “O‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan muloqot maneralari” mavzusidan dars o‘tish uchun uning ustida ishslash jarayonida “manera” rus tilidan kirib kelgan so‘zining ma’nosini besh tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘atidan qidirib topa olmadim, so‘ngra ikki tomlik ruscha-o‘zbekcha lug‘atdan “manera” so‘zining o‘zbek tilida “tarz” ma’nosini anglatishini aniqladim. Amaliy mashug‘ulot jarayonida tinglovchilar ham “manera” so‘zining ma’nosini bilishmasligi aniq bo‘ldi va shu sababli mavzuda “muloqot tarzlari” deyilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Mana shunday duch kelishi mumkin bo‘lgan masalalarga e’tiborsizlik bilan qarashlarimizni ta’limning intensiv rivojlanish jarayononiga to‘siq deb hisoblayman.

Maktablarning direktorlari o‘rinbosarlarini o‘zlarining funksional vazifalarini bajarishga qaytarish zarur. Bugungi kunda ular ko‘proq tashqaridan kelayotgan topshiriqlarni bajarish, jadvallar to‘ldirib axborotlar berishdan ortmay qolishdi.

Mobil guruh a’zolarining faoliyati Samarqand viloyati hokimligining toifa darajani oshirishdagi nazorat qilish tajribasi ko‘rinishi tarzida olib borilishi kerak. Bunda mobil guruh a’zosi faoliyatining natijadorligi eksperimental sinfdagi samaradorlikka qarab tekshirilsa, yangi zamonaviy metodikaning maktabda ommolashishi sinflardagi o‘quvchilarning bilim darajalarini xalqaro baholash tashkilotlari hamda DTS talablaridan kelib chiqqan holda o‘rganilish asosida xulosalar chiqarilishi lozim. Agar mobil guruh a’zosining ish faoliyati qoniqarsiz topilsa, xulosa chiqarish markaz direktoriga, shuningdek, zamonaviy ta’lim metodikasining maktabdagagi tatbiqida kamchiliklar kuzatilsa, maktab direktori to‘g‘risida xulosa chiqarish hududlarda tashkil etilgan “Direktorlar kehgashi”ga havola qilinishini taklif etamiz.

Xohlasmizmi yo‘qmi ayrim maktablarda “Qo‘l uchida, naridan beri, kun o‘targa ishlaydigan, maoshni kutib yashaydigan” o‘qituvchilar uchrab turadi. Kasbiga fidoyi bo‘limgan ona tili, matematika kabi fanlarni hamda boshlang‘ich sinfni o‘qitadigan birgina o‘qituvchisi bo‘lgan maktabda sifatli ta’limga erishib bo‘lmaydi. Fikimizning to‘g‘riligini, malakalrini oshirishga kelgan barcha tinglovchilari e’tirof etishdi.



Shunday ekan, davlatimiz rahbari aytayotgan va butun xalqimiz kutayotgan sifatli ta’limga erishish uchun o‘qituvchilarning ommoviy tarzda kasbiga sodiqlik bilan ishslash mexanizmini davlat siyoati darajasida yaratish, fidoyi bo‘limgan muallimlardan maktablarni tozalash zarur.

Bu tozalashni qanday amalga oshiramiz:

1)mobil guruh a’zolari bunday o‘qituvchilar to‘g‘risida maktab ma’muriyati bilan kelishgan holda pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining direktoriga yozma murojaat bilan chiqish qiladi;

2) pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining direktori taklifiga asosan, viloyati hokimligi, viloyat mакtabgacha va mакtab ta’limi boshqarmasi, tuman (shahar) mакtabgacha va mакtab ta’limi bo‘limlarining mas’ul vakillari ishtirokida o‘qituvchining kasbiy faoliyati qayta o‘rganiladi;

3) agar taftish hay’ati tomonidan o‘rganilgan o‘qituvchi nokompetent deb topilsa, o‘qituvchi Respublika Prezidenti tomonidan egallab turgan lavozimidan ozod etiladi.

Bunday tadbirning tashkil etilishining o‘ziyoq barcha o‘qituvchilarni sergak torttiradi.

Agar ushbu tadbir hayotga tatbiq etilib, 1-2 nafar o‘qituvchi ishdan olinsa, maktablardagi barcha muallimlar bugungi kun talablari darajasida ishlaydigan, malaka darajalarini uzlusiz oshiradigan bo‘lib qolishadi. Kelajakda bunday tajribalarimizni jahon O‘zbek modeli deb qabul qilishi yurtimiz ravnaqiqiga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Pespublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020-yil, 23-sentabir.

2. O‘zbekiston Pespublikamiz Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘grisida”gi 2021-yil 25-yanvarda PQ-4963-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. –Zarafshon gazetasi, 2022-yil, 22-dekabr.



4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 17-yanvarda №25-son Qarori.

5. Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish choralari muhokama qilindi. Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2023-yil, 23-may.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent: “O‘zbekston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008 – yillar. 1 – 5 jildlik.

7. Pedagogika ensiklopediya. 2-jild/Tuzuvchilar jamoasi. -Toshkent: “O‘zbekston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2005. – 376 bet.

8. Отчет об исполнении сметы расходов на 01.01.2023 года. Приложение №2. к Правилам составления, утверждения и представления месячных, квартальных и годовых бухгалтерских отчетов организациями, финансируемыми из Государственного бюджета Республики Узбекистан.